



denotat esa bu jihatda o‘ta murakkab xarakterli hisoblanib, uning denotatini ma’lum leksik muqobil bilan almashtirib bo‘lmaydi. Chunki oksimaronlar shunday o‘ziga xos birliklarki, murakkab, qiyin vaziyatlarni o‘ziga xos ta’sirchan ifodalovchilardir.

Badiiy matnda emotsionallikning ifodalovchisi sifatida antisemik birliklar asosida tuzilgan noodatiy birliklarning komponentlaridan birining “belgi” bildiruvchi so‘zlardan iborat bo‘lishi ko‘proq kuzatiladi. Ba’zan ma’lum belgi orqali ifodalan Bu holatda belgi bildiruvchi so‘zlardagi konkret mazmun abstraktlashib boradi. Bu abstrakt mazmun so‘zning konkret mazmundagi ma’no qirralari asosida yuzaga keladi. Bunda ijodkor o‘zida kechayotgan anglab bo‘lmas holatlarni yorqin aks ettiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, biz ilmiy kuzatishlarimiz jarayonida shu narsaga amin bo‘ldikki, oksimaron holatida munosabatga kirishayotgan ko‘chma ma’no ifodalashga xizmat qilayotgan birliklar, ma’lum bir sezgi orqali idrok etilishi lozim bo‘lgan tushunchalar farqli tuyg‘ular orqali ifodalanganda betakror, favqulodda kuchli okkazonallik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan g‘ayriodatiy birikmalar yuzaga keladi. Aynan shu o‘rinda oksimaronli sinestezik metaforalar hosil bo‘ladi, ya’ni oksimaroniya va sinesteziya hodisalari o‘zaro to‘qnashadi va ular qorishig‘ida o‘ta kuchli emotsionallikka boy bo‘lgan yangi bir okkoziyal butunlik yuzaga keladi. Masalan,

So‘ldirdi umrimning gulin bu zamon

Qaynoq qahratonning yellari shoshqin.

Atrof tuman yo‘li, qarshilar sovuq.

Zimiston qa’riga cho‘kmishdir hayot.(R.Parfi.)

Adabiyotlar:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. Тошкент: Фан, 1983. – 41 б.
2. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 59 б.
3. Аҳмад С. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: Шарқ, 2000.
4. Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 74 б.
5. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 91 б.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT SOHASIGA OID TERMINLAR NEOLOGIZMI

Azimova Dildora Maxmudjonovna

Namangan davlat texnika universiteti, PhD katta o‘qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0003-7179-6202>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida buxgalteriya hisobi hamda audit sohasida shakllanayotgan zamonaviy neologizmlar tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda iqtisodiy, texnologik va huquqiy o‘zgarishlar natijasida sohada ko‘plab yangi terminlar paydo bo‘lib, ular buxgalteriya amaliyotini raqamlashtirish, sun‘iy intellektni joriy etish va xalqaro standartlarni tatbiq etish jarayonlari bilan bog‘liq. Maqolada ushbu neologizmlarning mazmuni, inglizcha shakllari va amaliy qo‘llanilishi misollar bilan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: neologizm, buxgalteriya hisobi, audit, termin, raqamli iqtisodiyot, kriptoaktivlar, sun‘iy intellekt, xalqaro standartlar.

NEOLOGISMS OF ACCOUNTING AND AUDITING TERMINOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Azimova Dildora Makhmudjonovna

Namangan State Technical University, PhD Senior teacher

<https://orcid.org/0009-0003-7179-6202>

Abstract. This article analyzes modern neologisms emerging in the fields of accounting and auditing in the English and Uzbek languages. In recent years, due to economic, technological, and legal changes, numerous new terms have appeared in these areas. They are closely related to the processes of digitalization of accounting practices, the implementation of artificial intelligence, and the adoption of



international standards. The article explores the meanings of these neologisms, their English equivalents, and practical applications supported by relevant examples.

Keywords: neologism, accounting, audit, terminology, digital economy, crypto assets, artificial intelligence, international standards.

НЕОЛОГИЗМЫ ТЕРМИНОВ В ОБЛАСТИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И АУДИТА В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Азимова Дильдора Махмуджоновна

Наманганский государственный технический университет, PhD старший преподаватель

<https://orcid.org/0009-0003-7179-6202>

Аннотация. В данной статье анализируются современные неологизмы, формирующиеся в английском и узбекском языках в сфере бухгалтерского учёта и аудита. В последние годы в результате экономических, технологических и правовых изменений в данной области появляются многочисленные новые термины, связанные с цифровизацией бухгалтерской практики, внедрением искусственного интеллекта и применением международных стандартов. В статье раскрывается содержание этих неологизмов, их английские эквиваленты и практическое применение, приведены соответствующие примеры.

Ключевые слова: неологизм, бухгалтерский учёт, аудит, термин, цифровая экономика, криптоактивы, искусственный интеллект, международные стандарты.

Bugungi globallashuv davrida buxgalteriya hisobi va audit sohalari sezilarli darajada oʻzgarib bormoqda. Xalqaro moliyaviy tizimlarning uygʻunlashuvi, axborot texnologiyalarining jadal rivoji hamda iqtisodiyotning raqamli shaklga oʻtishi bu sohalarning terminologik tizimida ham yangilanishlarni keltirib chiqarmoqda.

Oʻzbek tilida buxgalteriya hisobi va audit sohasiga oid terminlarni milliy lashtirish harakati mavjud boʻlsa-da, ingliz tilidagi terminlar ustuvorlik kasb etmoqda. Audit va buxgalteriya terminlarining ayrimlari uchun toʻliq semantik ekvivalent topish qiyin, masalan, *material misstatement*.

Tilning har qanday sohasidagi terminologik oʻzgarishlar jamiyatda sodir boʻlayotgan texnologik va iqtisodiy taraqqiyot bilan chambarchas bogʻliq. Yangi iqtisodiy hodisalar bilan birga yangi terminlar shakllanmoqda. Masalan, *fintech*, *cloud accounting*, *blockchain accounting* yangi termin 21-asr boshida raqamli buxgalteriyaga javoban paydo boʻlgan.

Buxgalteriya hisobi va audit terminlarining rivojlanishi tilda yangi terminlarni paydo boʻlishiga taʼsir qiladi. M.M.Baxtin aytganidek, “...odamlarning barcha sohalardagi faoliyati tildan qanday foydalanish bilan bogʻliq” hamda buxgalteriya hisobi va audit sohasi ham bundan mustasno emas.

Buxgalteriya hisobi va audit sohasi, har kuni yangi rivojlanishlar va oʻzgarishlar bilan tanishadi. Bu oʻzgarishlarni ifodalash uchun yangi soʻzlar va frazalar paydo boʻlishiga olib keladi, yaʼni neologizmlarga. Tadqiqotimizda buxgalteriya sohasidagi yangi soʻz va ifodalarni oʻrganishni va ularning oʻzbek tiliga taʼsirini tahlil qilishni maqsad qilganmiz.

Buxgalteriya hisobi va audit sohasida zamonaviy iqtisodiy, texnologik va huquqiy oʻzgarishlar tufayli yangi terminlar – neologizmlar paydo boʻlmoqda. Quyida sohaga oid neologizmlardan namunalar keltirilgan:

Buxgalteriya hisobi va audit sohasiga oid neologizmlar

No	Termin	Inglizcha ekvivalenti	Izoh
1	Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari	IFRS – International Financial Reporting Standards	Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida tayyorlash tizimi
2	Elektron buxgalteriya	E-accounting	Moliyaviy hujjatlarni raqamli formatda yuritish
3	Bulutli buxgalteriya	Cloud accounting	Internet orqali buxgalteriya dasturlaridan foydalanish
4	Avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimi	Automated accounting system	Buxgalteriya ishlarini avtomatik bajarayotgan dasturiy vositalar



5	Kriptoaktivlar hisobi	Crypto asset accounting	Kriptovalyutalar kabi raqamli aktivlarni hisobga olish
6	Kriptovalyuta	Cryptocurrency	Davlat tomonidan boshqarilmaydigan raqamli valyuta
7	Elektron valyuta	E-currency	Raqamli tizimlarda ishlatiladigan to’lov vositasi
8	Blokcheyn	Blockchain	Elektron reyestr, moliyaviy yoki boshqa jarayonlarni nazorat qiladi
9	Kiber-hudud	Cyberspace	Iqtisodiy sohada axborot xavfsizligi bilan bog’liq tushunchalar
10	Raqamli moliya	Digital finance	Raqamli platformalarda muomalada bo’lgan moliyaviy aktivlar
11	Forensik audit	Forensic audit	Moliyaviy jinoyatlarni aniqlash uchun o’tkaziladigan tekshiruv
12	Ichki audit	Internal audit	Tashkilot ichidagi nazorat tizimini baholash
13	Ekologik audit	Environmental audit	Atrof-muhitga ta’sirini tekshiruvchi audit turi
14	Raqamli audit	Digital audit	Sun’iy intellekt yordamida o’tkaziladigan audit
15	Xavfga asoslangan audit	Risk-based audit	Tashkilotdagi xavflarni inobatga olib o’tkaziladigan audit usuli

Bundan tashqari bugungi kunda umumiste’modagi ommalashgan neologizmlar ham mavjud, masalan, oylik maoshni hisoblash uchun turli dasturlar paydo bo’lmoqda *asbo*, *moliyachi*, *bot*, yoki pul bilan bog’liq turli o’tkazmalar *klik*, *paynet*, *payme* kabilar.

Bu so’zlar va ifodalarning asosiy ma’nolari, buxgalteriya sohada o’zgarishlarni va yangiliklarni tushuntirishda yordam beradi. Yangi paydo bo’layotgan so’zlar faqatgina til boyligini oshiribgina qolmay, balki iqtisodiy sohadagi muhim jarayon va tendensiyalarni tushunish hamda ularni tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham buxgalteriya va audit sohalaridagi neologizmlarni o’rganish, ularning ahamiyatini tahlil qilish va o’zbek tilidagi mos ifodalarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb masala sanaladi.

Ushbu neologizmlarning ingliz va o’zbek tillaridagi semantik o’xshashlik va farqlarini o’rganish nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki kasbiy tarjima amaliyotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular zamonaviy buxgalteriya tilining terminologik tizimini boyitib, xalqaro muloqotda yagona ilmiy uslubni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. IFRS Foundation. *International Financial Reporting Standards (IFRS)*. London, 2023.
2. Warren, C. S., Reeve, J. M., Fess, P. E. *Accounting Principles*. New York: Cengage Learning, 2022.
3. Porter, B., Simon, J., & Hatherly, D. *Principles of External Auditing*. Wiley, 2021.
4. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. *Buxgalteriya hisobi to’g’risidagi qonun*. Toshkent, 2021.
5. Azimova D. M. *Ingliz va o’zbek tillaridagi buxgalteriya hisobi va audit terminlarining leksik-semantik tadqiqi*. (dissertatsiya materiali), 2025.
6. Makhmudjanovna, A.D. (2023). The Role of Accounting and Auditing Terminology in the Language System.
7. Azimova, D. (2023). Ingliz tilida so’z yasallishining buxgalteriya hisobi va audit terminlari materiali asosida tahlili. In Fergana state university conference (pp. 167-167).
8. Makhmudjanovna, A.D. (2023). Approaches to Studying Accounting and Auditing Terms. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(11), 573-576
9. Azimova, D. (2023). Buxgalteriya hisobi va audit soxasiga oid terminlarning leksikografik tadqiqi. In Fergana state university conference (pp. 210-210).



10. Azimova Dildora Maxmudjonovna. (2025). DIACHRONY OF ACCOUNTING AND AUDITING TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14781548>
11. Azimova, D.M. (2016). The real purpose of implementation of distance learning. Молодой ученый, (2), 763-765.
12. Azimova, D. (2023). Buxgalteriya hisobi va audit soxasiga oid terminlarning leksikografik tadqiqi. In Fergana state university conference (pp. 210-210).

TALABALAR FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISHDA ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

**Jumaboyeva Sevinch Rashid qizi
Bozorboyeva Kumushoy Shuhrat qizi**

Circhiq davlat pedagogika universiteti Turizm Fakulteti: Xorijiy til va adabiyoti yo’nalishi talabalari

Email: Jumaboyevasevinch6@icloud.com

Email: kumushbozorboyeva136@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarning o’rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Pedagogik texnologiyalar ta’limni boshqarishning tizimli yondashuvi sifatida, talabaning mustaqil fikrlashi, ijodiy faoliyatini va o’zlashtirish samaradorligini oshiradi. Maqolada interaktiv o’qitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyihaviy va muammoli o’qitish uslublari kabi ilg‘or texnologiyalarning amaliy jihatlari, shuningdek, ularni qo’llashdagi samaradorlik shartlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: ilg‘or pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli ta’lim, innovatsiya, mustaqil o’qish, talaba faolligi, kreativ fikrlash.

ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN ACTIVATING STUDENT ACTIVITY

**Jumaboyeva Sevinch Rashid qizi
Bozorboyeva Kumushoy Shuhrat qizi**

Chirchik State Pedagogical University

Faculty of Tourism: Students of the Foreign Language and literature department

Email: Jumaboyevasevinch6@icloud.com

Email: kumushbozorboyeva136@gmail.com

Abstract: This article examines the role and significance of advanced pedagogical technologies in enhancing students’ engagement and activity in the learning process. Pedagogical technologies are viewed as a systematic approach to managing education that helps develop students’ independent thinking, creativity, and learning efficiency. The article discusses interactive teaching, information and communication technologies, project-based and problem-based learning, and provides insights into their practical application and effectiveness.

Keywords: advanced pedagogical technologies, interactive learning, digital education, innovation, student engagement, independent learning, creative thinking.

ПЕРЕДОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ АКТИВИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ

**Джумабоева Севинч Рашид кизи
Бозорбоева кумушой Шухрат кизи**

Чирчикский государственный педагогический университет

Факультет туризма: студенты направления «Иностранный язык и литература»

Электронная почта: Jumaboyevasevinch6@icloud.com

Электронная почта: kumushbozorboyeva136@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается роль и значение передовых педагогических технологий в повышении активности студентов в учебном процессе. Педагогические технологии